



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ME'ZONLARI

Faxriddin Xasanov

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisdagi talabalarda axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, axborot manbalaridan samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi misolida axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Axborot kompetentligi, raqamli savodxonlik, talaba, ta'lim texnologiyalari, axborot madaniyati, baholash mezonlari.*

Аннотация: *В данной работе анализируются вопросы формирования и развития информационной компетентности у студентов. В современном образовательном процессе все большее значение приобретают компетенции в области цифровых технологий, эффективное использование информационных источников, критическое мышление и обеспечение информационной безопасности. Также на примере системы высшего образования Узбекистана рассматриваются практические аспекты педагогических подходов и инновационных технологий, способствующих развитию информационной компетентности.*

Ключевые слова: *Информационная грамотность, цифровая грамотность, студент, образовательные технологии, информационная культура, критерии оценки.*

Abstract: *This thesis analyzes the issues of forming and developing information competence in students. In the modern educational process, competencies in digital technologies, effective use of information sources, critical thinking and ensuring information security are gaining importance. Also, the practical aspects of pedagogical approaches and innovative technologies that serve to develop information competence are considered on the example of the higher education system of Uzbekistan.*

Keywords: *Information literacy, digital literacy, student, educational technologies, information culture, assessment criteria.*

Kirish.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari bugungi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda talabalarning bilim darajasini belgilashda ularning nafaqat faktik ma'lumotlarni egallashi, balki axborotni izlash, tahlil qilish, saralash va undan to'g'ri foydalanish qobiliyati – ya'ni axborot kompetentligining mavjudligi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



kompetentlik talabani o'z mustaqil fikrini shakllantirishi, yangilikka intilishi, global axborot oqimida yo'lini topa olishi va eng muhimi, zamonaviy kasbiy muhitda samarali faoliyat yuritishi uchun muhim shartdir.

Bugun dunyo miqyosida ta'lim jarayonini raqamlashtirish, ochiq ta'lim platformalari va sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, axborot madaniyatini yuksaltirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham bu yo'nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishning samarali omillari va uni baholash mezonlari hali to'liq ishlab chiqilmagan. Ushbu tezisdagi axborot kompetentligini rivojlantiruvchi ichki va tashqi omillar, pedagogik yondashuvlar, shuningdek, bu kompetentlik darajasini aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy mezonlar tahlil etiladi. Tezis zamonaviy ta'lim jarayonida talabani shaxsiy va kasbiy taraqqiyotida axborot kompetentligining tutgan o'rnini va ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan.

Axborot kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Bu kompetentlik – talabani zamonaviy axborot muhiti bilan samarali ishlash, mustaqil axborot izlash, uni tahlil qilish, baholash va qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Axborot kompetentligining shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular pedagogik, texnologik va psixologik jihatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Axborot kompetentligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

axborotni izlash kompetensiyasi – kerakli ma'lumotni aniqlash, axborot manbalarini tanlay olish;

axborotni tahlil qilish va qayta ishlash kompetensiyasi – axborot ishonchligini baholash, uni mavzuga moslashtirish;

axborotdan foydalanish kompetensiyasi – amaliy topshiriqlarni bajarishda, loyiha va taqdimotlar tayyorlashda axborotni to'g'ri qo'llash;

axborot madaniyati – axborot xavfsizligiga rioya qilish, mualliflik huquqlarini tushunish va hurmat qilish.

Axborot kompetentligini baholash mezonlari esa quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

axborotni izlash va tanlashdagi aniqlik;

tanlangan ma'lumotni qayta ishlash va tahlil qilish sifati; axborotni aniq, mantiqiy va maqsadga muvofiq tarzda ifodalash; raqamli vositalardan mustaqil foydalanish darajasi;

axborot madaniyati va etik me'yorlarga rioya qilish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlar, gamifikatsiya, problemali o'qitish, layihaviy faoliyat kabi yondashuvlar ayniqsa samarali hisoblanadi. Bu metodlar orqali talabalar faollikka, izlanishga, mustaqil fikr yuritishga va zamonaviy axborot muhitida to'g'ri harakat qilishga o'rgatiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar, xususan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qo'llanilayotgan DIGCOMP (Digital Competence Framework) modeli talabalarda axborot kompetentligini bosqichma-bosqich baholashga yordam beruvchi samarali vosita sifatida tan olingan.

Adabiyotlar tahlili:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Talabalarda axborot kompetentligini shakllantirishga doir ilmiy -nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu masala nafaqat ta'lim jarayonining texnologik jihatlari, balki shaxsiy rivojlanish, kognitiv yondashuvlar va zamonaviy kompetensiyalar nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Xususan, A. V. Hutorskoyning kompetensiyaviy yondashuvga oid ishlarida axborot bilan ishlash kompetensiyasi umumta'limiy kompetensiyalarning eng muhimlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Unga ko'ra, zamonaviy shaxs o'z hayot faoliyatida axborotga ishlov bera olish, uni tahlil qilgan holda qaror qabul qilish darajasiga ega bo'lishi kerak.

V. I. Soldatkina va N. G. Seleznevlarning tadqiqotlarida axborot kompetentligining struktura-modulli modeli ishlab chiqilgan bo'lib, bu modelda axborot qidiruvi, tanlovi, tahlili va bahosi alohida bosqichlar sifatida ko'rsatilgan. Bu esa talabalarda kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvni ifodalaydi.

Xalqaro tajribalarga murojaat qilsak, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DIGCOMP – Raqamli kompetensiyalar tizimi, talabalarda axborot bilan ishlash, kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish kabi besh asosiy yo'nalishni qamrab oladi. Ushbu tizim, hozirgi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida talabalar raqamli savodxonligini baholashda qo'llanilmoqda.

O'zbekistonlik olimlardan I. Yo'ldoshev, D. Qodirov va M. Sattorovlarning raqamli ta'lim, axborot texnologiyalari va kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy ishlari bu yo'nalishning milliy xususiyatlari va mavjud imkoniyatlarini tahlil qiladi. Xususan, D. Qodirovning "Axborot madaniyatini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni" nomli tezissida oliy ta'lim muassasalarida raqamli vositalardan to'g'ri foydalanish orqali talabalarning axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, UNESCO tomonidan tayyorlangan "Media and Information Literacy" (2021) qo'llanmasida axborot kompetentligining global kontekstdagi o'rni, yoshlar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, soxta va noto'g'ri ma'lumotlardan himoyalani kabi jihatlar ham chuqur yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish uchun uzviy integratsiyalashgan, fanlararo va amaliy yo'naltirilgan ta'lim tizimini yaratish zarur. Shuningdek, bu kompetensiyani baholash mezonlari ham xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirilishi lozim.

Zamonaviy dunyoda axborotga ega bo'lish emas, balki uni qanday topish, tahlil qilish va to'g'ri ishlata olish – shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatning mezoniga aylanmoqda. Shu bois, ta'lim tizimi oldida turuvchi eng muhim vazifalardan biri – talabalarda axborot kompetentligini samarali shakllantirishdir. Ushbu kompetensiya – bu faqat texnik ko'nikmalar emas, balki tanqidiy fikrlash, axloqiy mas'uliyat, axborotga nisbatan madaniyatli yondashuvni ham o'z ichiga oluvchi murakkab psixopedagogik holatdir. Amaliy kuzatuvlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar bugungi axborot oqimida yo'lini topishda qiynalmoqda. Raqamli resurslar ko'paygani sari axborotni saralash, haqiqiy va soxta ma'lumotni ajratish, ma'lumotdan maqsadli foydalanish



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



zaruriyati kuchaymoqda. Bu holat, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarini yangi yondashuvlarni izlashga undamoqda.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, axborot kompetentligini rivojlantirish – bu o'quv jarayonini interaktiv, innovatsion, ko'proq talaba shaxsiga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishni talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi – ma'lumot beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va tahliliy fikrlashga undovchi yetakchi sifatida ishtirok etishi lozim. Ayniqsa, loyiha asosida ta'lim, gamifikatsiya, muammoli o'qitish kabi metodlar talabalarning axborotga mustaqil yondashuvini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Muhokamalar shuni ko'rsatmoqdaki, har bir talaba axborot manbalaridan foydalanishda nafaqat texnik jihatdan, balki axloqiy va madaniy jihatdan ham tayyor bo'lishi kerak. Bu esa ta'lim jarayonida nafaqat bilim, balki qadriyatlar, ijtimoiy ong va mas'uliyatni ham singdirishni taqozo etadi. Zero, axborot faqat bilim emas – u ijtimoiy kuch, uni boshqarish esa shaxsning yetuklik darajasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Xulosa.

Shunday ekan, bugungi ta'lim axborot kompetentligini rivojlantirishga bir yoqlama emas, balki kompleks, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bilan qarashni talab qilmoqda. Bu yo'lda o'qituvchi va talaba hamkorligi, ilmiy-tadqiqotga asoslangan yondashuvlar, raqamli savodxonlikni yuksaltirish vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda axborot kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish – bugungi ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Ushbu kompetensiyaning mavjudligi nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
2. Солдаткина В.И., Селезнева Н.Г. Информационная компетентность студентов: структура, развитие, диагностика. – Москва: Академический проект, 2015. – 214 с.
3. European Commission. Digital Competence Framework for Citizens (DigComp 2.1). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
4. <https://joint-research-centre.ec.europa.eu>
5. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
6. Ko'Charovich, O. A., & Akmalovich, K. S. (2025). TEXNIK MEXANIKA FANIDAN TASMALI UZATMALARDA TASMA TURLARI VA ULARDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH METODIKASI. Механика и технология, 1(18), 301-308.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



7. Akmalovich, K. S. (2025). **TEXNOLOGIK TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI.** TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(2), 173-179.

8. Kunratovich, C. R., & Akmalovich, K. S. (2023). **METHODOLOGY OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS IN INFORMATION EDUCATION.** Science and Innovation, 2(12), 14-18.

9. Kucharovich, O. A., Akmalovich, K. S., & Qorajonovich, Z. A. (2023). **Methodology of Teaching Technology in Secondary Schools.**

10. Kucharovich, O. A., & Akmalovich, K. S. (2022). **SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS,** 128.

